Leonurus L. turkumi ayrim turlarining ontogenezning dastlabki bosqichlari

Bahodirova G.I.
Toshkent davlat agrar universiteti tayanch doktoranti

Qabul qilindi: 23.09.2025
Ko‘rib chiqildi: 24.09.2025
Tasdiqlandi: 25.09.2025

Kalit so‘zlar:
Leonurus L., ontogenez, rivojlanish bosqichlari, urug‘dan o‘sish, o‘simlik rivojlanishi, morfologiya.

Annotatsiya. . Ushbu tadqiqot ishida Leonurus L. turkumiga mansub ayrim turlarining ontogenezning dastlabki bosqichlari o‘rganildi. O‘simliklarning urug‘dan boshlanishidan to yosh o‘sish bosqichigacha bo‘lgan rivojlanish jarayonlari tahlil qilinib, hujayra bo‘linishi, o‘sish dinamikasi va morfologik o‘zgarishlar batafsil yoritildi. Tadqiqot natijalari Leonurus turlarining rivojlanish xususiyatlarini tushunishga hamda ularning agrobiologik xususiyatlarini yaxshilashga yordam beradi.

Yalpizdoshlar oilasi -Lamiaceae (Lindley 1836), yoki labguldoshlar oilasi-Labiatae (A.L. de Jussieu 1789) 200 dan ortiq turkum va deyarli 3500 turni o‘z ichiga olib, (Taxtadjan, 1966) oila vakillari keng tarqalgan.

Oila vakillaridan Nepeta sibiricaning ontogenez bosqichlari (Myadeles, 2008) quyidagicha : se, p, j, im, v, g_1, g_2, g_3, ss, s. Ontogenez davri davomiyligi 10-12 yilni tashkil etadi. Ontomorfogenez esa boshlang‘ich poya (p), boshlang‘ich buta (j-im), tup (куртина) (v- g_1, g_2), qisman buta (парциальный куст) (g_3), qisman poyalanish (ss-s).

L.A. Jukova va boshqalarning (1988, 2007) ma’lumotiga ko‘ra, o‘simliklarning ontogenezi, ya’ni hayotiy sikli 4 ta davr (embrional, pregenerativ, generativ va postgenerativ) hamda bir qator bosqichlardan (se, p, j, im, v, g_1, g_2, g_3, ss, s, sc) iborat.

Qrimning tog‘li hududida *Leonurus quinquelobatus*ni urug‘idan yetishtirish texnologiyasi asosiy elementlari ishlab chiqilgan. O‘simlik vegetatsiyasining fenologik fazalari quyidagilar: o‘sib chiqish, poyalarning hosil bo‘lishi, shoxlanish, g’unchalash, gullash va urug’ning pishish davri (sut oldi pishish, sut pishish, xamirsimon yetilish, mum va to‘liq pishish). Vegetatsiya davri 200 kunni tashkil etgan. Laboratoriya sharoitida ushbu o‘simlikning urug‘ unuvchanligi urug‘ terib olingandan 2,5 oy o‘tib kuzatilgan (Yermolayeva, 2020).

Oddiy va turkiston arslonquyrug‘ining ontogenezi “O‘simliklarning to‘liq ontogenez davrlari” jadvaliga (L.A. Jukova va boshqalar, 1988, 2007) muvofiq quyidagi o‘sish va rivojlanish davrlari va bosqichlariga ajratildi:

Latent davri. Latent davri o‘simlik urug‘i pishib yetilgan vaqtdan boshlab urug‘ unib chiqqungacha bo‘lgan vaqtni o‘z ichiga oladi (Jukova,1988).

To‘liq pishgan oddiy va turkiston arslonquyrug‘i urug‘larning latent davri davomiyligi 3-4 kunni tashkil etdi (1-rasm).

Oddiy arslonquyruq Turkiston arslonquyrug‘i



1-rasm. Oddiy va turkiston arslonquyrug‘ining latent davri

Virginil davri. Virginil davri o‘simlik urug‘idan unib chiqishni boshlagandan g‘uncha hosil qilguncha bo‘lgan davrni qamrab olib, p – maysa, j – yuvenil, im – immature, v – yetuk virginil bosqichlarni o‘z ichiga oladi.

Maysa (p) bosqichi urug‘lardan dastlabki urug‘pallabarglari hosil bo‘lishi bilan izohlanadi. Tajribada oddiy va turkiston arslonquyrug‘ining maysa bosqichi davomiyligi 7-8 kun ekanligi qayd etildi (2-rasm).

Oddiy arslonquyruq Turkiston arslonquyrug‘i



2-rasm. Oddiy va turkiston arslonquyrug‘ining maysa bosqichi

Yuvenil (J). Yuvenil bosqichi haqiqiy barglarning paydo bo‘lishi bilan boshlanadi. Beshbo‘lakli arslonquyruqning yuvenil davri 220 kun davom etgan (Yermolayeva, 2020). Tajribada oddiy va turkiston arslonquyrug‘ining yuvenil bosqichi deyarli 2-2,5 oy davom etdi (3-rasm).

Oddiy arslonquyruq Turkiston arslonquyrug‘i



3-rasm. Oddiy va turkiston arslonquyrug‘ining yuvenil bosqichi

Immatur bosqichi. O‘simlikning maysa va yuvenil bosqichida hosil bo‘lgan barglar qurib tushadi, o‘simlik shoxlanishni boshlaydi. Arslonquyruq turlarida qirralari o‘tkirlashgan barglar hosil bo‘ldi, maysa va yuvenil bosqichidagi barglar esa qurib tushdi (4-rasm)

Oddiy arslonquyruq Turkiston arslonquyrug‘i



4-rasm. Oddiy va turkiston arslonquyrug‘ining immatur bosqichi

Yetuk virginil boqichi. Bu bosqichda o‘simliklar generativ fazaga kirish uchun tayyorgarlik ko‘radi, anatomik, fiziologik, morfologik hamda biokimyoviy o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Bu bosqichda oddiy va turkiston arslonquyrug‘i o‘sib rivojlandi (5-rasm).

Oddiy arslonquyruq Turkiston arslonquyrug‘i



5-rasm. Oddiy va turkiston arslonquyrug‘ining yetuk virginil bosqichi

Generativ davr. Bu davrda o‘simliklarda gullari ochila boshlaydi. Adabiyotlardan olingan ma’lumotlarga ko‘ra, beshbo‘lakli arslonquyruqning generativ fazasi 28 kun davom etgan (Yermolayeva, 2020). Tadqiqot yillarida oddiy va turkiston arslonquyrug‘i aprel oyining oxiri may oyidan boshlab to sentabrgacha gulladi (6-rasm).

Oddiy arslonquyruq Turkiston arslonquyrug‘i



6-rasm. Oddiy va turkiston arslonquyrug‘ining generativ davri

Tadqiqot davri davomida (2023-2025) oddiy va turkiston arslonquyrug‘ining subsenil va senil bosqichlari kuzatilmadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘. Ahmedov. va boshqalar. Dorivor o‘simliklar yetishtirish texnologiyasi va ekologiya. T.: “Tafakkur bo‘stoni”. Darslik. 2018. 107-111 b
2. Ермолаева М. В. Разработка основных элементов технологии выращивания семян пустырника пятилопастного (*Leonurus quinquelobatus* Gilib.) в прегорной зоне Крыма: автореферат дис. – Кубанский государственный аграрный университет им. ИТ Трубилина, 2020. -25 с.

3. Жукова Л. А. Некоторые аспекты изучения онтогенеза семенных растений //Вопросы онтогенеза растений. – 1988. – С. 3-14.
4. Жукова Л. А., Ведерникова О. П., Иванова Т. В. Онтогенетический атлас растений: научное издание. Т. 5. – 2007. 372 с.
5. Мурдахаев Ю. М. Интродукция лекарственных растений в Узбекистан. –Диссертация доктора биологических наук. -С. 389-.- 1992.
6. Мяделец М. А. Губоцветные Хакасии: видовой состав, экология и перспективы использования //Автореф. дисс.… канд. биол. наук. – 2008. – С. 17.
7. Тахтаджян А. Л. Система и филогения цветковых растений. – Alexander Doweld, 1966.